

MA'NAVIY-MA'RIFIY ISLOHOTLARDA “BESH TASHABBUS” NING O'RNI.

Botirov Asadbek

*GDPI Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish
metodikasi(ma'naviyat asoslari) yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda olib borilayotgan ma'naviy- ma'rifiy islohotlar bo'yicha so'z yuritilgan. Ayniqsa “Besh tashabbus” dasturiga alohida to'xtalib o'tilgan. Bu islohotlarning jamiyatimizga va yoshlarga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatganligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Islohotlar, besh tashabbus, san'at, madaniyat, sport, kompyuter texnologiyalari, kitobxonlik.

Yoshlar kelajak poydevoridir. Bu poydevor qanchalik mustahkam bo'lsa kelajak ham shunchalik ishonchli va mustahkam bo'ladi. Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlari yuksak intellektual salohiyatga, keng dunyoqarashga, dunyoda boshqa tengdoshlaridan kam bo'lmaslikka, baxtli bo'lib kamol topishlari uchun prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning xarakat va tashabbuslari bilan biz yoshlarga juda keng imkoniyatlar yaratib bermoqdalar. Bu imkoniyatlardan to'g'ri va samarali foydalanib yurt kelajagi uning ravnaqi uchun xissa qo'shmog'imiz kerak. Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil qiladi. Bu yoshlarning ta'lim olishi , rivojlanishi, o'z ustida ishlashlari uchun sharoitlar yetarlidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 19-mart kuni o'tkazilgan yig'ilishlarida yoshlarni har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish bo'yicha besh ta muhim tashabbusni ilgari surdilar. Bu besh tashabbus bo'yicha olib borilgan ishlar O'zbekiston



bo'yicha yaxshi natijalarga erishildi. Keling endi o'sha besh tashabbusning har biri bilan alohida tanishib chiqamiz.

Birinchi tashabbus: Yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'- atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, istedodini yuzaga chiqarishga hizmat qiladi. Bu birinchi Tashabbus yuzasidan mamlakatizmida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2019-2020-yillar mobaynida 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 2 million yigit-qizlarni madaniyat va san'atga jalb etish bo'yicha xududiy yo'l xaritalari ishlab chiqilgan. Madaniyat vazirligi va Xalq ta'lim vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman hamda shaharlarda madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarimizning qiziqishlaridan kelib chiqib qo'shimcha 1.5 mingta to'garaklar tashkil etish vazifasi oldinga qo'yildi.[1] Shu bilan birga bu birinchi tashabbus bo'yicha yurtimizda juda ko'plab musiqiy, teatr va san'atga oid festivallar o'tkazildi va o'tkazilib kelinmoqda. Bularning barchasi yoshlarni bilimini, istedodini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar hisoblanadi.

Ikkinchi tashabbus: Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasidagi qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratilgan. Prezidentimiz bu borada har bir tumanda sport inshootlarini qurish, axoli va yoshlar o'rtasida ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalarini berdilar. Bu tashabbus bo'yicha ham ko'plab ishlar amalga oshirildi. Xususan, har bir mahalla, tuman, viloyatlar miqiyosida sport musobaqalari tashkil etildi. Endilikda esa turli xil tashkilotlar hodimlari o'rtasida ham sport musobaqalari tashkillashtirilmoqda. Mahallalarda turli xil sport to'garaklari joriy etildi. Axolini sport bilan shug'ullanishlari uchun mahallalarda sport maydonchalari qurildi. Yoshlar uchun juda ko'plab imtiyozlar berildi. Shulardan bittasi sport olimpiyadalarida faxirli o'rnlarni egallagan yoshlar uchun Oliy Ta'lim Muassasalariga imtiyozli grant asosida o'qishga kirish imkoniyati berildi.



Uchinchi tashabbus: Axoli va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan. 2019-2020-yillar mobaynida hududlarda IT markazlarini tashkil etish va ularda yoshlarga bepul ta'lim berish bo'yicha ishlar amalga oshirilgan. Men yashayotgan Sirdaryo viloyati Guliston shaxrida ham IT markaz o'z faoliyatini yuritib kelmoqda. Unda yoshlarni talab va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda turli xil kompyuter kurslari joriy qilingan. Zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan. Yoshlarni bilim olishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bundan tashqari respublikamiz axolisini sifatli internet tarmog'i bilan taminlash bo'yicha ishlar amalga oshirildi. Xususan 2020-yilda optik tolali aloqa liniyalarini tortish ishlari 7155 ta maktablarda amalga oshirilgan bo'lsa, 2021-yil yakuniga qadar bu ko'rsatgich 10008 taga yetkazish ko'zda tutilgan edi. Bugungi kunda internet tarmog'iga ulangan maktablar "education" tarifiga ulangan va maktab quvvatidan kelib chiqib 10/40/100 Mbit/s tezlikda ishlamoqda.[2] XXI asr texnika va texnologiyalar asrida yashar ekanmiz bu sohaga talab yildan yilga ortib bormoqda.

To'rtinchi tashabbus: Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlar tashkil etishga yo'naltirilgan. Bu tashabbus bo'yicha har bir hududga 1 million dona badiiy, ilmiy, tarixiy, ommabob mavzulardagi kitoblarni yetkazib berish ko'zda tutilgan edi va bu shunday ham bo'ldi. Axborot resurs markazlarini qurish, ularni rekonstruksiya qilish ishlari belgilangan. Yurtimizda kitobxonlikni keng targ'ib qilish orqali insonlar ma'naviyatini yanada yuksaltirish, ma'naviy immunitetini mustahkamlash, fikrlashini, dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilayabdi. Shu asnoda mamlakatimizda joriy qilingan "Yosh kitobxon" tanlovining maqsadi ham Bolalar va yoshlar o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish, ularning intellektual salohiyati va ma'naviy saviyasini yuksaltirishdan iboratdir.[3] Yoshlarning ma'naviyati qanchalik kuchli bo'lsa, yot illatlarga qarshi immuniteti ham kuchli bo'ladi.



Beshinchi tashabbus: Xotin-qizlarni ish bilan taminlash masalalarini nazarda tutadi. Xotin qizlarni ish bilan taminlash Beshinchi tashabbusning muhim qismidir, chunki ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirishga, shaxsiy rivojlanishi va faravonligi uchun, qolaversa jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatlidir. 2019-2020-yillarda har bir tumanda yengil konstruksiyali tikuv trikotaj korxonalarini qurish va ayollarni band etish ko'zda tutilgan edi va bu bugungi kunga kelib o'z natijasini berdi. Mamlakatimizda minglab ayollar ish bilan taminlandi. Bundan tashqari Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha imtiyozli kreditlar ajratildi. Yurtimizning ko'plab hududlarida xotin-qizlarni o'qitish va ish bilan taminlash maqsadida monomarkazlar qurildi. "Mamlakatimizda xotin – qizlarning jamiyatdagi o'rni, ularning oilaga bo'lgan munosabatlari, ijtimoiy hayotdagi ro'li g'oyat muhim ahamiyatga egaligi bois, ularning mavqei har jihatdan yuqori baholanmoqda. Huquqiy davlat va demokratik jamiyat qurish yo'lidan dadil odimlab borayotgan mamlakatimizda xotinqizlarning erkaklar bilan barcha sohadagi tengligi ta'minlashga, ularni ulug'lashga va qadrlashga, qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan milliy huquqiy tizimdir" [4].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, "Besh tashabbus" dasturi yoshlarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash, ularning mamlakatimizda ijtimoiy faolligini oshirish, qolaversa shaxsiy rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Abror Avazovich Nazarov MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR YANGI O'ZBEKISTON BUNYODKORI. Oriental Art and Scientific Methodical journal// volume 5 Issue 4 // August 2024. -B.51.

2. <https://daryo.uz/2021/04/29/2021-yil-oxiriga-qadar-ozbekistonda-optik-tola-kirib-bormagan-maktab-qolmaydi-xalq-talimi-vazirligi>



3. <https://www.yoshlarportali.uz/oz/projects/8>

4. Isaxova Shaxlo Muxtarovna Isaxova, Sabrina Ismoil Qizi Bekmuhamadova. TA'LIMDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOY HIMOYASI VA TENGLIK MASALASINING QONUNYIY MEXANIZMLARI. Academic research in educational sciences.2024. -B. 71-73

